

MEHNAT MIGRANTLARI HUQUQLARINING XALQARO HUQUQIY HIMOYASI

Jumaboyev Jahongir O‘rozboy o‘g‘li

Jahong Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti

Xalqaro huquqi yo‘nalishi,

Magistratura talabasi,

jahongirjumaboev01@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehnat migrantlari huquqlarining xalqaro-huquqiy himoyasi tizimi chuqur tahlil qilingan bo‘lib, unda migratsiya jarayonlarining globallashuvi sharoitida xalqaro normalar, monitoring mexanizmlari va davlatlar oldidagi majburiyatlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlik ochib beriladi. Tadqiqotda BMTning 1990-yilgi “Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolari huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, XMTning 97 va 143-sonli Konvensiyalari, Yevropa Kengashi, YeI hamda boshqa mintaqaviy institutlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar xalqaro migrantlarning huquqiy maqomiga doir asosiy manba sifatida baholanadi. Maqolada mehnat migrantlariga tenglik, kamsitmaslik, xavfsiz mehnat sharoitlari, ijtimoiy ta‘minot, shaxsiy daxlsizlik, oilaviy birlashish, shuningdek, noqonuniy migrantlar uchun ham minimal huquqiy kafolatlar berilishiga doir universal tamoyillar tizimli ochib beriladi. Tahlil jarayonida xalqaro mehnat migratsiyasi oqimlarining jadal sur‘atda ortishi, ayrim davlatlarning selektiv migratsiya siyosati, “brain drain”, ekspluatatsiya, odam savdosi, majburiy mehnat kabi xavflarning kuchayishi sharoitida xalqaro huquq mexanizmlarining amaliy samaradorligi va ularning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishidagi muammolar ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida ko‘rib chiqilgan. Maqola shuningdek, xalqaro monitoring organlari – XMT Qo‘mitasi, BMT shartnoma organlari, Universal davriy ko‘rib chiqish (UPR), maxsus ma‘ruzachilar institutining roli hamda ushbu mexanizmlarning davlatlar tomonidan bajarilishi bilan bog‘liq dolzarb masalalarni yoritadi.

Kalit so‘zlar

mehnat migranti, xalqaro huquq, XMT Konvensiyalari, migrantlar huquqlari, diskriminatsiya, ijtimoiy himoya, xalqaro migratsiya, BMT Konvensiyasi

**МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА ПРАВ ТРУДОВЫХ
МИГРАНТОВ**

Джумабоев Жахонгир Урозбой угли

Университет мировой экономики и дипломатии

Направление: международное право

Магистрант

jakhongirjumaboev01@gmail.com

Аннотация

В настоящей статье проводится глубокий анализ международно-правовой системы защиты прав трудовых мигрантов, в рамках которого раскрывается сложная взаимосвязь между международными нормами, механизмами мониторинга и обязательствами государств в условиях глобализации миграционных процессов. В исследовании рассматриваются Международная конвенция ООН 1990 года «О защите прав всех трудящихся-мигрантов и членов их семей», Конвенции МОТ №97 и №143, а также документы, принятые Советом Европы, ЕС и иными региональными институтами, которые оцениваются как ключевые источники, определяющие правовой статус международных мигрантов. В статье системно раскрываются универсальные принципы, предусматривающие равенство, недискриминацию, безопасность условий труда, социальное обеспечение, личную неприкосновенность, воссоединение семьи, а также предоставление минимальных правовых гарантий мигрантам, находящимся в нерегулярном статусе. В процессе анализа исследуются вопросы, связанные с быстрым ростом международных миграционных потоков, селективной миграционной политикой отдельных государств, феноменом «утечки мозгов», эксплуатацией, торговлей людьми, рисками принудительного труда, а также практическая эффективность международно-правовых механизмов и проблемы их имплементации в национальные законодательства. Статья также освещает деятельность международных мониторинговых органов — Комитета МОТ, договорных органов ООН, механизма Универсального периодического обзора (UPR), института специальных докладчиков, а также актуальные вопросы, связанные с выполнением государствами данных механизмов.

Ключевые слова

трудовой мигрант, международное право, Конвенции МОТ, права мигрантов, дискриминация, социальная защита, международная миграция, Конвенция ООН.

INTERNATIONAL LEGAL PROTECTION OF THE RIGHTS OF MIGRANT WORKERS

Jumaboyev Jahongir Orozboy ugli

University of World Economy and Diplomacy

Field of Study: International Law

Master's Student

jakhongirjumaboev01@gmail.com

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the international legal framework for the protection of the rights of migrant workers, revealing the complex interrelationship between international norms, monitoring mechanisms, and state obligations within the context of globalised migration processes. The study examines the 1990 UN International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families, ILO Conventions No. 97 and No. 143, as well as instruments adopted by the Council of Europe, the EU, and other regional bodies, which are assessed as primary sources defining the legal status of international migrants. The article systematically elaborates universal principles ensuring equality, non-discrimination, safe working conditions, social protection, personal inviolability, family reunification, and also the minimum legal guarantees afforded to migrants in an irregular status. The analysis addresses the rapid growth of international labour migration flows, the selective migration policies of certain states, the “brain drain” phenomenon, exploitation, human trafficking, forced labour risks, as well as the practical effectiveness of international legal mechanisms and the challenges associated with their implementation into national legislation. The study further highlights the role of international monitoring bodies—including the ILO Committee of Experts, UN treaty bodies, the Universal Periodic Review (UPR) mechanism, and the institution of Special Rapporteurs—while also addressing pressing issues related to states’ compliance with these mechanisms.

Keywords

migrant worker, international law, ILO Conventions, migrants’ rights, discrimination, social protection, international migration, UN Convention.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklar davomida dunyoda kechayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar mehnat migratsiyasini global miqyosda yanada faol jarayonga aylantirdi. Bugun millionlab insonlar o‘z ona yurtini tark etib, xorijda tirikchilik qilishga majbur bo‘layotgani tasodifiy hol emas — xalqaro mehnat bozorining kengayishi, demografik siljishlar, texnologiyalar rivoji va ijtimoiy tengsizlik bu jarayonni tezlashtirmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2021-yildagi ma‘lumotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 169 milliondan ortiq mehnat migrantlari mavjud¹². Bu raqamlarning o‘ziyoq mehnat migratsiyasi nafaqat shaxsiy tanlov yoki iqtisodiy zarurat, balki global tizimning ajralmas qismiga aylanganini ko‘rsatadi. Mehnat migrantlari ko‘pincha og‘ir mehnatni bajaradilar, ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlaydilar, qabul qiluvchi davlatlar iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadilar. Yuboruvchi davlatlar uchun esa migrantlar jo‘natadigan pul o‘tkazmalari – remittanslar — hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib

¹² International Labour Organization. ILO Global Estimates on International Migrant Workers: Results and Methodology. Geneva: ILO, 2021.

bormoqda¹³. Biroq migratsiya jarayonining bu ijobiy tomonlariga qaramay, millionlab migrantlar huquqiy noaniqlik, ekspluatatsiya, kamsitilish, xavfli mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoyasiz qolish kabi tahdidlarga doimiy duch kelmoqda. Shu sababli xalqaro hamjamiyat migrant huquqlarini alohida himoya qilish zarurligini ancha oldin anglagan. 1990-yilda qabul qilingan “Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi BMT Konvensiyasi ushbu yo’nalishda eng muhim universal hujjat sifatida tan olingan. Shuningdek, XMTning 97-sonli va 143-sonli Konvensiyalari mehnat migrantlarining maqomi, ular uchun kafolatlanishi lozim bo’lgan huquqlar va davlatlar zimmasidagi majburiyatlarni aniq belgilab beradi. Ushbu hujjatlar zamonaviy migratsiyaning murakkab tabiatini, ayniqsa, hujjatsiz yoki ekspluatatsiya xavfiga yaqin bo’lgan migrantlarning holatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, amaliyotda xalqaro normalarning so’zsiz ishlayotgani yo’q. Ba’zi davlatlarda selektiv migratsiya siyosati, “arzon ishchi kuchi”ga bo’lgan talab, mehnat bozorining yashirin segmentlari migrantlar ahvolidan yanada og’irlashuviga sabab bo’lmoqda. “Brain drain” — malakali kadrlardan ayrilish hodisasi — ayrim davlatlar uchun strategik yo’qotishlarni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, odam savdosi, majburiy mehnat, vositachi agentliklarning nazoratsiz faoliyati kabi illatlar xalqaro migratsiya tizimining eng og’riqli nuqtalaridan bo’lib qolmoqda¹⁴. Migrantlar huquqlarining amalda qay darajada himoya qilinayotgani ko’p jihatdan xalqaro monitoring tizimlari ishiga bog’liq. XMT Ekspertlar qo’mitasi, BMT shartnoma organlari, Inson huquqlari bo’yicha Kengashning Universal davriy ko’rib chiqish (UPR) mexanizmi va maxsus ma’ruzachilar instituti davlatlarning qabul qilingan majburiyatlarga qanchalik rioya qilayotganini doimiy baholab boradi⁷. Ushbu tahlil mexanizmlarining mavjudligi — xalqaro me’yorlar real hayotda qanday ishlayotgani, qaysi sohalarda sustlik yoki huquqbuzarlik borligi to’g’risida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mehnat migrantlari huquqlarining xalqaro-huquqiy himoyasini chuqur o’rganish nafaqat akademik ahamiyatga ega, balki davlatlar oldida turgan amaliy vazifalarni hal etishda ham dolzarbdir.

METHODS (Tadqiqot metodologiyasi)

Birinchi, **doktrinal huquqiy tahlil** (legal doctrinal analysis) metodi orqali BMTning “Migrant Ishchilar va ularning oila a’zolari huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi 1990-yilgi Konvensiyasi, ILOning 97-, 143-, 181-sonli Konvensiyalari, 2018-yil Global Migration Compact, Yevropa Ittifoqining mehnat migrantlariga oid direktivalari, MDH davlatlarining ikki tomonlama mehnat migratsiyasi bitimlari normativ jihatdan solishtirildi. Ushbu metod xalqaro huquq normalarining mazmuni, maqsadi va huquqiy kuchi bo’yicha tizimli taqqoslash imkonini beradi.

¹³ World Bank. Migration and Development Brief 35. Washington DC, 2021.

¹⁴ International Organization for Migration. World Migration Report 2022.

Ikkinchidan, **qiyosiy-huquqiy tahlil** (comparative legal method) yordamida migratsiya tizimi rivojlangan davlatlar (AQSh, Kanada, Germaniya, Janubiy Koreya) modeli O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston kabi migrant eksport qiluvchi davlatlarning huquqiy tizimlari bilan solishtiriladi. Bu solishtirish mehnat migrantlari uchun himoya mexanizmlarining qaysi jihatlari samarali, qaysilari esa takomillashtirishga muhtoj ekanini aniqlashga yordam beradi.

Uchinchidan, tadqiqotda **institutsional tahlil** (institutional analysis) yondashuvi qo‘llanilib, ILO, IOM, UNHCR, UNODC, OSCE, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning mehnat migrantlari bilan ishlashdagi o‘rni, vakolatlari, xalqaro standartlarni shakllantirishdagi roli, amaliy dasturlari sinchiklab o‘rganildi. Bu metod migratsiya sohasida xalqaro institutlarning dinamikasini, ularning davlat siyosatiga ta‘sir mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi.

To‘rtinchidan, **empirik ma‘lumotlar tahlili** (empirical data analysis) asosida Xalqaro Mehnat Tashkilo, Xalqaro Migratsiya Tashkiloti va Jahon Banki tomonidan taqdim etilgan statistik ma‘lumotlar, migratsiya oqimlari, mehnat shartnomalari, ekspluatatsiya darajalari, qayd etilgan huquqbuzarlik holatlari, remittanslar hajmi tahlil qilindi. Statistik tahlil mehnat migrantlari duch kelayotgan xavflarni ob‘ektiv baholash va muammolar ko‘lamini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini berdi.

Beshinchidan, **sotsiologik-huquqiy yondashuv** (socio-legal method) qo‘llanildi. Migratsiya oqimlarining ijtimoiy omillari, mehnat migrantlari psixologik zaifligi, iqtisodiy turtkilari, ekspluatatsiya xavfi, transmilliy mehnat bozoridagi nomutanosibliklar ilmiy manbalar asosida baholandi. Bu yondashuv migrantlarning huquqiy himoyasiga ijtimoiy omillar qanday ta‘sir ko‘rsatishini yoritdi.

Oltinchidan, **normativ-huquqiy monitoring** (legal monitoring) metodi asosida O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi — “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Qonun, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, Mehnat kodeksi, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari xalqaro standartlarga muvofiqlik nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Yettinchidan, tadqiqotda **kritik tahlil** (critical analysis) qo‘llanilib, xalqaro huquq normalarining amalda qo‘llanishidagi bo‘shliqlar, davlatlar tomonidan xalqaro shartnomalar bajarilishidagi muammolar, mehnat migrantlarining real hayotdagi huquqiy himoyasi va formal normativ hujjatlar o‘rtasidagi tafovutlar aniqlab chiqildi.

Metodlar tanlovi tadqiqotning ilmiy maqsadiga mos ravishda shakllantirildi va qo‘llangan yondashuvlarning majmui mehnat migrantlari huquqlarining xalqaro-huquqiy tizimini chuqur, tizimli va ko‘p qatlamli tahlil qilishga imkon berdi.

RESULTS (NATIJALAR)

Mehnat migrantlari huquqlarining xalqaro-huquqiy himoyasi bo‘yicha tadqiqot natijalari

Ushbu tadqiqot mehnat migrantlari huquqlarining xalqaro-huquqiy himoyasi amaliyotda qanday ishlayotgani, mavjud mexanizmlarning samaradorligi hamda davlatlarning ushbu sohadagi real vaziyati haqida bir qator muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Eng avvalo, tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro normativ baza — ya'ni BMT Konvensiyasi, XMTning 97 va 143-sonli konvensiyalari, YeI va Yevropa Kengashining mintaqaviy hujjatlari — huquqiy jihatdan yetarli darajada mukammal bo'lsa-da, ularning milliy darajada to'laonli amalga oshirilishi bir xil emas. Ba'zi davlatlar ushbu standartlarni o'z qonunchiligiga chuqur integratsiya qilgan bo'lsa, ayrim mamlakatlarda ular faqat deklarativ xarakterga ega bo'lib qolmoqda. Va shu o'rinda ushbu xalqaro normativ hujjatlarni o'z qonunchiligi bilan uyg'unlashtirgan davlatlarning aksariyat qismini qabul qiluvchi davlatlar emas, balki yuboruvchi davlatlar tashkil qiladi, bu esa o'z o'rnida mehnat migrantlari huquqlarining himoyasi kuchsiz bo'lib qolishi davomiyligini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida olingan eng e'tiborli natijalardan biri — **mehnat migrantlarining real hayotdagi huquqiy holati ularning rasmiy maqomidan ko'ra ko'proq mehnat bozorining nomutanosibliklari va siyosiy yondashuvlar bilan belgilanayotganidir.** Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Xalqaro Migratsiya Tashkilotining global ma'lumotlariga asoslanib shuni aytish mumkinki, migrantlarning katta qismi past malakali ishchi kuchi sifatida bozorning eng himoyasiz segmentlariga kiradi. Bu esa ularni ekspluatatsiya, majburiy mehnat, hujjatlarni musodara qilish, haq to'lanmaslik kabi holatlarga nisbatan juda sezgir toifaga aylantiradi. Jahon banki o'z hisobotida migrantlar ko'pincha ijtimoiy himoya tizimlaridan chetda qolishini, ayniqsa nodavlat vositachi agentliklar ularni aldash yoki suiiste'mol qilish amaliyoti keng tarqalganini qayd etadi¹⁵.

Natijalarning yana biri shuki, xalqaro monitoring organlari — XMT Ekspertlar qo'mitasi, BMT Shartnoma organlari, UPR jarayonlari — davlatlarga migrantlar huquqlarini ta'minlash borasida ko'plab tavsiyalar beradi, ammo ushbu tavsiyalarning bajarilishi doimo bir xil darajada emas¹⁶. Ayrim davlatlar migratsiya bilan bog'liq siyosatini ochiq va hamkorlikka tayyor yondashuv asosida olib borsa, boshqalari xavfsizlik yoki iqtisodiy manfaatlarni ustun qo'ygan holda cheklovchi siyosat yuritadi. Bu esa xalqaro standartlar va milliy siyosatlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Shuningdek, natijalarda **“brain drain” — malakali kadrlardan ayrilish hodisasi** alohida tahlil qilindi. Castles, de Haas va Millerning ilmiy ishlariga tayangan holda shuni aytish mumkinki, yuqori malakali mutaxassislarning migratsiyasi iqtisodiy jihatdan kuchsiz davlatlarning rivojlanish strategiyalariga zarar yetkazishi mumkin. Bu holat migrant huquqlarini himoya qilish masalasini faqat ijtimoiy adolat yoki inson

¹⁵ World Bank. Migration and Development Brief 35. Washington DC, 2021.

¹⁶ United Nations Human Rights Office. Treaty Bodies and Special Procedures, 2021.

huquqlari nuqtai nazaridan emas, balki global iqtisodiy muvozanatning bir qismi sifatida ham ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, xalqaro-huquqiy hujjatlarning samaradorligi ko‘p jihatdan davlatlarning o‘z majburiyatlarini qay darajada bajarishiga bog‘liq. Masalan, IOMning “World Migration Report 2022” hisobotida qayd etilishicha, bir xil konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar amaliyotda butunlay turlicha yondashuvlarga ega. Bu farqlarning asosiy manbai sifatida:

- siyosiy tizimning ochiqligi,
- iqtisodiy imkoniyatlar,
- mehnat bozorining ehtiyojlari,
- migratsiya siyosatiga bo‘lgan ijtimoiy munosabat kabi omillar ko‘rsatib o‘tilgan.

Yana bir asosiy natija — **migrantlar huquqlarining himoya qilinmaganligi rasmiy maqomga bog‘liq emas**. Qonuniy migrantlar ham ayrim hollarda ish beruvchiga qaramlik, nazoratsiz shartnomalar va ijtimoiy himoya tizimlaridan chetlanish tufayli nochor holatga tushishi mumkin. Xususan, ko‘plab davlatlarda viza ish beruvchi bilan bog‘lab qo‘yilgani sababli migrantlar ish joyini erkin o‘zgartira olmaydi — bu esa majburiy mehnatning zamonaviy ko‘rinishlaridan biri sifatida baholanadi¹⁷.

Natijalar ichida yana bir muhim jihat shuki, migratsiya siyosatining asosiy maqsadi iqtisodiy tamoyillarga qaratilganligi bois ushbu jarayonlarda inson huquqlari ikkinchi darajaga tushib qolgan. Bu asosan migrantlarning ishlash ruxsatnomasiz, shartnomalarsiz, xavfli mehnat sharoitida ishlashi mumkin bo‘lgan qurilish, dehqonchilik, uy xizmati va shunga o‘xshash boshqa sohalarda keng tarqalgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, migrantlar huquqlarining samarali himoyasini ta‘minlash uchun faqat xalqaro normalar mavjud bo‘lishi yetarli emas.

Buning uchun davlatlar:

- migratsiya siyosatini inson huquqlariga yo‘naltirishi,
- monitoring hisobotlariga jiddiy e‘tibor berishi,
- mehnat bozoridagi yashirin segmentlarni tartibga solishi,
- xususiy bandlik agentliklari ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatishi,
- ijtimoiy himoya tizimini kengaytirishi zarurligi aniqlangan.

DISCUSSION / MUHOKAMA

Mehnat migrantlari huquqlarining xalqaro-huquqiy himoyasi nazariy jihatdan mukammal tizimga ega bo‘lsa-da, amaliyotda mavjud bo‘lgan tafovutlar bu sohada hanuz ko‘plab yechilmagan masalalar mavjudligini tasdiqlaydi. Eng avvalo, davlatlar o‘rtasida migratsiya masalasiga yondashuvning bir xil emasligi global me‘yorlarning samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi

¹⁷ United Nations Human Rights Office. Treaty Bodies and Special Procedures, 2021.

davlatlarida migrantlar huquqlarini kafolatlash bo'yicha yuqori standartlar ishlab chiqilgan bo'lsa, Osiyo va Yaqin Sharqdagi ayrim davlatlarda bu yondashuv iqtisodiy manfaatlar bilan cheklanib, inson huquqlari ikkinchi darajali o'ringa tushib qolgan. Bu tafovutlar BMTning shartnoma organlari tomonidan ham muntazam qayd etilib keladi. Masalan, BMT Inson huquqlari qo'mitasining 2019-yildagi hisobotida migrantlarning qo'lga olinishi, ularni saqlash sharoitlari, yuridik yordam va tibbiy xizmatdan foydalanish kabi masalalarda keskin farqlar mavjudligi aniq ko'rsatib o'tilgan. Bu esa xalqaro me'yorlarning real hayotda bir xil darajada tatbiq etilmayotganini ko'rsatadi. O'rganilgan natijalar migrantlarning huquqiy maqomiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri — mehnat bozorining informallasuvi ekanini ko'rsatdi. XMT ma'lumotlariga ko'ra, migrantlarning yarmidan ko'pi norasmiy sektor faoliyatida qatnashadi. Norasmiy mehnat bozori esa — xavfsiz mehnat sharoitlarining yo'qligi, noqonuniy ishlash, haq to'lanmasligi, ijtimoiy himoya bilan ta'minlanmaslik kabi omillarni yuzaga kelish asosi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hukumatlar tomonidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, norasmiy sektorda ishlovchi migrantlar uchun minimal kafolatlarni joriy etish global miqyosda muhim vazifa ekanini ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida aniqlangan yana bir muhim jihat — xalqaro monitoring mexanizmlarining real ta'siri. XMT Ekspertlar qo'mitasi, Xalqaro mehnat konferensiyasi va uning nazorat mexanizmlari muntazam ravishda davlatlar faoliyatini baholaydi, ammo bu mexanizmlarning davlat siyosatiga ta'siri bir xil emas. Masalan, YeI davlatlarida XMT tavsiyalariga amal qilish darajasi yuqori bo'lsa-da, Yaqin Sharqdagi ba'zi davlatlarda migrantlar qaramlik tizimi — “kafala” orqali hali ham jiddiy huquqbuzarliklar sodir etilmoqda¹⁸. Bu holat shuni anglatadiki, xalqaro mexanizmlar samaradorligi nafaqat huquqiy me'yorlar mavjudligiga, balki siyosiy irodaga ham bog'liq. Siyosiy iroda kuchli bo'lgan joyda migrantlar huquqlari kengayadi; aks holda esa, xalqaro konvensiyalar qog'ozda qolib ketadi. Yana bir muhim polemik xulosa shundaki, xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka uyg'unlashtirilishi ko'pincha siyosiy, iqtisodiy va demografik manfaatlar bilan bog'liq. Masalan, ayrim rivojlangan davlatlar mehnat migrantlari oqimidan iqtisodiy foyda ko'rsa-da, ularni to'laqonli huquqiy himoya bilan ta'minlashdan qochadi. Bu “normativ dualizm” deb ataladigan holatni yuzaga keltiradi: davlatlar bir tomondan ekspluatatsiyani qoralaydi, ikkinchi tomondan esa migrant bozorining arzon mehnat kuchidan foyda ko'radi. Bu esa xalqaro huquqiy mexanizmlarning real effektivligini kamaytiradi.

Tadqiqotning muhim topilmasi — mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilishda davlatlararo hamkorlikning past darajada ekanidir. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Xalqaro Migratsiya tashkiloti tomonidan ilgari surilayotgan ko'plab dasturlar,

¹⁸ Amnesty International. Saudi Arabia's Kafala System: Modern Slavery Practices, 2021.

jumladan Xavfsiz, Tartibli va Qonuniy Migratsiya bo'yicha Global Bitim (GCM), migrantlar uchun minimal ijtimoiy kafolatlar tizimini shakllantirishni taklif qilsa-da, ushbu mexanizmlarning real hayotga tadbiri notekis va sekin. Muhokama jarayonida shuningdek, ijtimoiy dialogning “migratsiya uchburchagi” — yuboruvchi davlat, qabul qiluvchi davlat va migrantlarning o'zlari o'rtasida hamisha barqaror bo'lmaganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, mehnat migrantlari huquqlarining buzilishi ko'pincha ikki omil kesishgan joyda yuzaga keladi:

Migrantlarning huquqiy zaifligi — til bilmaslik, hujjat bilan bog'liq muammolar, advokat yoki kasaba uyushmasining yo'qligi.

Iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi — arzon mehnat kuchiga ehtiyoj yuqori bo'lgani sababli ish beruvchi uchun “noqonuniy migrant” qulay ko'rinadi.

Bu holatlarni XMTning 2020-yildagi “Vulnerability of Migrant Workers” nomli tadqiqoti ham ochiq tan oladi. Unga ko'ra, migrantlarning huquqlariga eng ko'p zid keladigan holatlar arzon ishlaydigan sektorlar: qurilish, uy xizmati, qishloq xo'jaligi, kon sanoati kabi sohalarda kuzatiladi. Shuningdek, “brain drain” fenomeni bo'yicha olib borilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali migrantlar sonining ortishi ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun yo'qotishdir. Harvard Kennedy School tomonidan 2018-yilda o'tkazilgan tadqiqotda yuqori malakali kadrlarning migratsiyasi yillik iqtisodiy o'sishni 1–3% gacha pasaytirishi mumkinligi ta'kidlangan¹⁹. Bu esa migrantlar huquqlari masalasiga rivojlanayotgan davlatlar manfaatlarini nuqtai nazaridan ham yondashish zarurligini ko'rsatadi. Natijalardan kelib chiqadigan yana bir jihat — migrantlarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha ikki tomonlama bitimlarning ahamiyati. Masalan, Filippin, Hindiston, Bangladesh kabi davlatlar ko'plab davlatlar bilan mehnat migratsiyasiga oid bitimlar tuzgan, bu esa ularning migrantlar uchun kafolatlarini oshirishiga yordam bergan. Afsuski, dunyoning ko'p davlatlarida bunday bitimlar yetarli emas, yoki mavjud bo'lsa ham amaliy mexanizmlari kuchsiz.

Muhokamalar yakunida shuni aytishim mumkinki, migrantlar huquqlarining buzilishiga olib keluvchi omillar tizimli bo'lgani uchun, yechimlar ham tizimli bo'lishi lozim. Xalqaro tajriba asosida quyidagi tamoyillar eng samarali yondashuv sifatida maydonga chiqdi:

inson huquqlariga asoslangan siyosat,
“independent monitoring”, ya'ni mustaqil nazorat tizimlari,
migrantlar uchun minimal universal kafolatlar,
shaffof va tartibga solingan vositachilik tizimi,
norasmiy mehnat bozorini qisqartirish,
migrantlarga huquqiy yordam ko'rsatishni kengaytirish.

¹⁹ Harvard Kennedy School. Global Skilled Migration and Development Impact, 2018.

Ayniqsa, **BMTning Global Compact for Migration (GCM)** hujjatida migratsiyani xavfsiz, tartibli va qonuniy yo‘l bilan boshqarish bo‘yicha aniq mexanizmlar taklif qilingan²⁰. Bu hujjat mehnat migrantlari huquqlarini xalqaro miqyosda himoyalashning keyingi bosqichiga asos yaratadi.

CONCLUSION / XULOSA

Ushbu o‘rganish natijasida, Mehnat migrantlari huquqlarining xalqaro-huquqiy himoyasi rivojlanib borayotgan murakkab va ko‘p qirrali tizim ekanini yana bir bor tasdiqladi. Ilmiy tahlillar va xalqaro manbalarni solishtirish shuni ko‘rsatdiki, global mehnat migratsiyasining keskin ortishi fonida migrantlar huquqlarini ta‘minlash ko‘plab davlatlar uchun dolzarb siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Biroq ushbu sohada universal normalar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning amalda to‘laqonli ishlashi ko‘plab omillarga bog‘liq.

Birinchidan, xalqaro normativ-huquqiy baza yetarlicha mukammal va tizimlashtirilgan. BMTning Migrantlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi, XMTning 97 va 143-sonli konvensiyalari, YeI va Yevropa Kengashi hujjatlari migrantlar huquqlarining asosiy kafolatlarini belgilab bergan. Bu hujjatlar kamsitmaslik, xavfsiz mehnat, ijtimoiy himoya, oilaviy birlik, qonuniy tartibda yashash va adolatli munosabat kabi tamoyillarni universal standart sifatida mustahkamlagan.

Ammo ikkinchidan, bu normalarning milliy siyosatga tatbiqi bir xil emas. Davlatlarning siyosiy irodasi, iqtisodiy imkoniyatlari, mehnat bozorining ehtiyojlari va ijtimoiy muhit migratsiya siyosatiga keskin ta‘sir ko‘rsatadi. BMT Inson huquqlari qo‘mitasi 2019-yilgi hisobotida²¹ ko‘rsatganidek, ba‘zi davlatlarda migrantlar to‘liq ijtimoiy himoya tizimiga ulanmagan, ayrim joylarda esa advokat va tibbiy yordamdan foydalanish huquqlarini amalda amalga oshirish juda qiyin.

Uchinchidan, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, migrantlarning huquqiy zaifligi ko‘pincha ularning rasmiy maqomidan emas, balki mehnat bozorining tuzilmasidan kelib chiqadi. Norasmiy sektorda ishlovchi migrantlar ulushi yuqori bo‘lgani uchun, ekspluatatsiya, haq to‘lanmasligi, mehnat sharoitlarining xavfsiz emasligi kabi holatlar keng tarqalgan. Bu fakt XMTning zaif kontekstlarda ishlovchi migrantlar bo‘yicha hisobotida ochiq tasdiqlangan.

To‘rtinchidan, kafala tizimi (asosan Yaqin Sharq mamlakatlarida) migrantlarning iqtisodiy erkinligini cheklab, ularning huquqlari buzilishiga olib kelayotgan zamonaviy “mehnat qaramligining” bir ko‘rinishi sifatida baholanadi. Bu tizim xalqaro standartlarga zid ekani xalqaro tashkilotlar tomonidan muntazam tanqid qilinmoqda.

Beshinchidan, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, xalqaro monitoring mexanizmlarining roli juda muhim, ammo ularning ta‘siri doirasi bir xil emas. XMT Ekspertlar qo‘mitasi, UPR mexanizmi, maxsus ma‘ruzachilar va shartnoma organlarining tavsiyalari davlat

²⁰ United Nations. Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration, 2018.

²¹ UN Human Rights Committee. Concluding Observations, 2019.

siyosatini o'zgartirishga kuchli turtki berishi mumkin, lekin bu har doim ham aniq natijaga olib kelavermaydi. Bu esa xalqaro mexanizmlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Oltinchidan, “brain drain” fenomeni ham migrantlar huquqlariga oid munozaralarning muhim qismi ekani aniqlandi. Yuqori malakali kadrlarning ketishi ayrim davlatlar rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin²². Shu bois migratsiya siyosati faqat huquqiy emas, balki iqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqilishi zarur.

Yettinchidan, ikki tomonlama mehnat bitimlari migrantlar huquqlarini ta'minlashda samarali vositadir. Bunday bitimlar migrantlar uchun ijtimoiy himoya, tibbiy sug'urta, mehnat shartlari, repatriatsiya tartibi kabi kafolatlarni aniq belgilaydi. Ammo ko'plab davlatlarda bunday bitimlarning yetarli emasligi ularning huquqlarini himoya qilishda bo'shliq keltirib chiqaradi.

Yakunlovchi xulosa sifatida aytish mumkinki, migrantlar huquqlarining xalqaro-huquqiy himoyasini takomillashtirish uch asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

1. Normativ-huquqiy baza va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish.
 - Konvensiyalarni ratifikatsiya qilishni rag'batlantirish;
 - UPR va XMT nazorat mexanizmlariga rioya qilishni kuchaytirish.
2. Milliy siyosatni inson huquqlariga yo'naltirish.
 - Norasmiy mehnat bozorini qisqartirish;
 - Migrantlardan suiste'mol qiluvchi vositachi agentliklarni nazorat qilish;
 - Ijtimoiy himoya tizimi bilan ta'minlanish imkonini kengaytirish.
3. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.
 - ikki tomonlama bitimlar tuzish;
 - migrantlar manfaati yo'lida konsullik himoyasini kuchaytirish;
 - Global Compact for Migration (GCM) tamoyillarini amaliyotga joriy etish²⁰.

Agar davlatlar ushbu uch yo'nalishda samarali siyosat yuritsa, mehnat migrantlari huquqlarini xalqaro miqyosda ta'minlash nafaqat huquqiy majburiyat, balki global barqarorlik va insoniyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. International Labour Organization. ILO Global Estimates on International Migrant Workers;
2. Results and Methodology. Geneva: ILO, 2021;
3. Harvard Kennedy School. Global Skilled Migration Impact Report, 2018;
4. UN Human Rights Committee. Concluding Observations, 2019;
5. United Nations. Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration, 2018;

²² Harvard Kennedy School. Global Skilled Migration Impact Report, 2018.

- 6. Amnesty International. Saudi Arabia's Kafala System: Modern Slavery Practices, 2021;**
- 7. United Nations Human Rights Office. Treaty Bodies and Special Procedures, 2021;**
- 8. World Bank. Migration and Development Brief 35. Washington DC, 2021;**
- 9. International Organization for Migration. World Migration Report 2022;**
- 10. ILO. Vulnerability of Migrant Workers, 2020;**
- 11. ILO. Global Estimates on International Migrant Workers, 2021;**
- 12. ILO Convention No. 97 (1949) and ILO Convention No. 143 (1975).**